

MAYA ANJELU HIKOYALARINING MAVZUIY TASNIFLANISHI

Madina G'ofurovna URAZALIYEVA

mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

madinaurazaliyeva4@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Maya Anjelu hikoyalarining mavzuiy tasniflanishi xususida so'z yuritilgan. "Angladim qafasdagi qush nolasin" avtobiografik romanidagi mavzular mohiyatan keng uch guruhga birlashtirilib muhokama etilgan. Asarning deyarli barcha boblaridan mavzu doirasida misollar keltirilib tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: avtobiografik roman, bolalik, oila, inson va jamiyat, yetimlik, tarbiya, jinoyat, birodarlik, irqchilik, insoniy tenglik, yolg'iz ayol, gender muammolari.

ТЕМАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЗАЦИЯ РАССКАЗОВ МАЙИ АНЖЕЛУ

Мадина Гафуровна УРАЗАЛИЕВА

Независимый исследователь

Узбекский государственный

университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

madinaurazaliyeva4@gmail.com

Аннотация

В данной статье рассматривается тематическая категоризация рассказов Майи Анжелу. Темы автобиографического романа «Я знаю, почему поет птица в клетке» рассматриваются, объединенные в три группы. Практически из всех глав просматриваются и анализируются примеры, связанные с темой.

Ключевые слова: автобиографический роман, детство, семья, человек и общество, детский дом, образование, преступность, братство, расовая дискриминация, равенство людей, одинокая женщина, гендерные проблемы.

Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasin" asari uning bolalik хотiralaridan hikoya qiluvchi asar bo'lsada, uning har bir bobi yangi hikoyadir. Yozuvchi ushbu hikoyalar orqali ayni paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va kundalik hayotimizda uchrab turgan turli-tuman dolzarb mavzularni yoritishga harakat qilgan. Shu bois, mavzuiy jihatdan asar hikoyalarini uchta ulkan guruhga ajratish mumkin: bolalik, oila, inson va jamiyat. Ushbu mavzular ham o'z navbatida yetimlik, tarbiya, jinoyat, birodarlik, irqchilik, insoniy tenglik, yolg'iz ayollar qismati, gender muammolari kabi bir necha guruhlarga bo'linib ketadi.

Asarni o'qir ekanmiz, birinchi navbatda, asar markazida bolalik mavzusini ko'ramiz. Maya Anjelu akasi Bailey bilan ota-onasidan uzoqda, buvisinikida Stampsda ulg'aygan davrlarini hikoya qiladi. Shu o'rinda, bir nechta savollar zanjiri vujudga kelishi tabiiy: nahotki ular tirik yetim edilar? Ularning tarbiyasi bilan kim shug'ullangan? Tarbiyasidagi bo'shliq sabab jinoyatga qo'l urushmaganmi? Yoki balog'at davridagi o'zgarishlarchi? Shu kabi savollar, shubhasiz, har qanday kitobxonni o'yga toldirishi tabiiy. Onasining bag'riga qaytguniga qadar, Anjelu va Baileyga buvisi g'amxo'rlik qiladi. Bir o'g'li nogiron bo'lsada qaddini bukmagan va uning tug'ma nogiron emasligini ta'kidlab charchamaydigan Mrs.Henderson o'zining bir so'zligi, qat'iyatli va mardligi bilan butun Stampsda munosib hurmatga ega ayol edi. Shu sababli, uning ismiga hurmat bilan barcha qora tanli aholi "*Mrs*" – xonim yoki "*Sister*"-opa so'zini qo'shib aytar edilar. Yana bir e'tiborli jihati Anjeluning buvisi taqvodor hamda kitobsevar ayol bo'lgan va nabiralaridan ham huddi shuni talab qilgan. Bolalardan doimo toza va ozoda yurishni talab qilgan,ularni mehnatga o'rgatishga harakat qilgan, Anjelu buni ushbu ikki misralar bilan yodga oladi " Henderson buvimning o'zingizni ozoda saqlang va qo'pollik qilmang degan ikki buyrug'i bizning e'tiqodimiz asosi edi" (chapter 5, p 28) . Shuningdek, Mrs.Henderson ozodalik sabab xudoga yaqin bo'lish mumkinligini, tartibsizlik esa baxtsizlikka yetaklashini, qo'pol farzandni xudo ham hushlamasligini, bu ota-onasi va ajdodlariga isnod olib kelishini ta'kidlaganini Anjelu asar davomida xotirlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki tarbiyaning dastlabki elementlarini Bailey va Anjelu buvisidan olgan. Anjelu maktabda olgan ta'lim haqida gapirar ekan, u o'qigan va ta'lim olgan haqiqiy maktab George Washington maktabi ekanligini va bunga aynan ustoz Miss Kirwinning ustozlik mahorati sabab bo'lganligini ta'kidlaydi: (chapter 28, p 132) . Teatr va raqs to'garagi ham Anjeluning tortinchoqlik va omma oldida o'zini namoyon qila olish hislatlarini rivojlantirishda katta omil bo'lganligini yozib o'tgan.

To'g'ri, buvisi Stampsdagi yagona do'konga egalik qilganligi sabab ular to'kin hayot kechirardilar. Biroq, Bailey va Anjelu doimo qalblarida ota-onasiga

bo‘lgan sog‘inchni his qilib yashar edilar. Asarda Anjelu Daddy Bailey haqida so‘zlar ekan, uni faqat tashqi tarafdan ta’riflaydi, uning xarakteri haqida to‘xtalmaydi yoki erkalashlarini eslamaydi. Otasi Stampsga kelganida Anjelu rostdan ham yetimligini, dadasiga nisbatan hech qanday tuyg‘u yo‘qligini, uni Baileyga hamroh bo‘lishi uchun asrab olishgan degan qarorga keladi (chapter 9, p 43). Onasi haqida gap ketar ekan, aksincha, akasi va Anjelu uni “qadrdon onam”- “Dear Mother “ deya eslaydilar. Buvisinikida onasi haqida gapirish taqiqlanganligi tufayli qalblaridagi kechinmalarini aka-singil faqat bir-birlariga ayta olar edilar. Anjelu bolalar har yili intiqlik bilan kutadigan Rodjestvo bayramini aka-singil o‘ksinish bilan o‘tkazganliklarini yozadi, ular jo‘natgan sovg‘alar Bailey va Anjeluni xursand qilmas, aksincha, “Nega? Nega? Nega?” degan savollar yomg‘irini ko‘zlaridan tomchilatar edi (chapter 8, p 42). “Ammo, bu savollar ketidan bizda umid ham paydo bo‘lar edi, ular bizga sovg‘a jo‘natishdimi, demak, unutishmagan... demak, yaqinda kelib olib ketishadi degan umid”- deya yozadi Anjelu. Shu singari o‘ksinishlar tufayli Anjelu ortiq bola emasliklarini ta’kidlaydi.

“Angladim qafasdagi qush nolasin” asarida Bailey va Anjelu yetimlik qismati peshonalariga bitilgan yagona qahramonlar emas, taxminan Anjeludan to‘rt yoshlar katta Joyce personaji ham ota-onasining vafotidan so‘ng o‘zi zo‘rg‘a kunini ko‘rayotgan xolasining qaramog‘ida qolgan. Allaqachon, Mr.Freeman bilan yuz bergan voqealar tufayli “ulg‘aygan” Anjelu Joyce va Baileyning munosabatlarini tushunar edi. Joyce bu munosabatlar evaziga esa do‘kondan ko‘ngli tusagan narsalarga ega bo‘lar edi va albatta, bundan Mommaning xabari yo‘q edi. Bu xotiralarda Anjelu Baileyning qalbidagi onasi berishi kerak bo‘lgan mehrni Joycening sevgisi bilan to‘ldirganini izohlaydi (chapter 21, p 96). Aslida esa, ikkalasi ham o‘zlariga yetishmagan mehrni ko‘chadan izlaganliklarini asar qahramonlari orqali anglash qiyin emas. Shuningdek, Anjelu sinfdoshi Henry Reed haqida eslar ekan, uning ham boshqa ko‘pchilik bolalar kabi buvisi bilan yashashini yozadi,“ *Like many Southern Black children, he lived with his grandmother, who was as strict as Momma and as kind as she knew how to be*”(chapter 23, p 108),- demak, o‘sha davr uchun bolalarning buvisining

qaramog'ida qolishi ko'p uchraydigan holat sanalgan.

Anjelu bolalik xotiralarini yodga olar ekan, kitobxon asar davomida Bailey va Anjeluning erta ulg'ayganliklarini, atrofdagi voqea-hodisalarga teran nigoh bilan qaray boshlaganliklarini ko'rish mumkin. Zero, o'smirlik davridagi o'zgarishlar asar qahramonlarida ham yaqqol seziladi. Shuning uchun ham buvisi ularni endi eplay olmasligini aytib, onasi bag'riga qaytarishga qaror qiladi. Anjeluning zo'rlanganligidan qolgan asoratlar Mrs.Flowers bergan kitoblar tufayli asta-sekin yo'qola boshlaydi va ilk do'sti Louisni uchratadi, o'zligini anglay boshlaydi. Yozgi ta'tilda Anjeluning Daddy Baileyning oldiga borishi va u yerdagi ko'cha bolalari bilan o'tkazgan kunlarini ham o'smirlik davrining xotiralari sifatida tilga olinadi. Bailey esa aksincha bolalikni tark etgan sari jiddiy, kamgap bo'la boshlaydi va shu asnoda Anjelu akasidan uzoqlashganini yozadi. Onasining bag'riga qaytishganida esa Bailey onasi bilan bo'lgan kelishmovchiliklardan so'ng u yerni ham tark etadi, aslida, Bailey o'smirlik davrini boshidan kechirayotgan va unga yo'l ko'rsatuvchi erkakka muhtoj edi, boshqa otani – Daddy Clidellni Anjelu va onasi kabi u qabul qila olmadi, mustaqil bo'lishga urindi, nimalarnidir isbotlashga harakat qildi. “Onam va Bailey o'rtasida Ikkinchi jahon urushidagi Shvetsariya kabi betaraf edim, zero ularning ikkalasiga ham tarafdor kerakmas edi”,- deb xotirlaydi Anjelu Chapter 33, p 156). Aslida, ushbu holat Anjeluga begona emas edi, chunki u ham Dolorani qabul qila olmagan va otasining uyini tark etgan edi.

“Angladim qafasdagi qush nolasin” asaridagi yana bir dolzarb mavzulardan biri bu oila mavzusidir. Asarning deyarli barcha boblarida oila mavzusi yozuvchi tomonidan xotiralariga bog'lagan holda turlicha yoritiladi. Birodarlik, ota-onalik majburiyatlari, oilaviy an'analar kabi mezonlar Anjeluning xotiralarida “oila” tushunchasining shakllanishiga turtki bo'lgan desak adashmaymiz. Kitobxon asarni mutolaa qilish davomida dastlab, Anjeluning kichik dunyosida akasi Baileyning o'rni beqiyosligini anglaydi. Ular aka-singildek emas balki do'stlar kabi ulg'ayadilar, ota-onasiz o'tgan kunlarida bir-birlariga suyanadilar, quvonchli kunlarda esa birga sevinadilar. Doimo o'zlari sevgan asarlardagi qahramonlarini

bilar edilar va ulardan o‘zlariga hayolan juftlik yasab olar edilar. Bailey Anjelu uchun nafaqat aka, balki ota-himoyachi, ilk erkak edi, uning 16 yoshida uydan ketishini quyidagicha tasvirlaydi: “ Bailey uydan ketayotgan edi. Ertalab soat birda mening yolg‘iz damlarimda goblindan, gnomlardan, ajina-yu jinlardan qo‘riqlagan kichkina akam uyni tark etayotgan edi (chapter 33, p 33).

Asarni mutolaa qilar ekanmiz, juda ko‘p o‘rinlarda ota-onalik mavzusi ko‘tarilganini ko‘rishimiz mumkin. Ajrashganliklari tufayli Anjeluning ota-onasi o‘z hayot yo‘llarini qurishga bir necha marotaba urinadilar, bu esa albatta, Bailey va Anjeluga ham o‘gay ota-onalariga ko‘nikish majburiyatini qo‘yadi. Onasining sevgilisi Mr. Freeman va otasining xotini Dolora ham Anjeluni o‘z farzandidek qabul qilmaydilar, balki har ikki holatda Anjelu ham jismonan, ham ruhan jabr ko‘radi. Anjelu Dolorani kuzatar ekan, uni o‘z onasi bilan solishtiradi va onasi Doloradan ming marta yaxshiroq, go‘zalroq, aqlliroq ekanligini unga ochiq aytadi: *“I’ve got one and she’s worlds better than you, prettier, too, and intelligent and...”* (chapter 31, p 149) . Mr. Freeman Anjeluga yaqinlashganda ham uni otalik mehri sifatida tushunadi, uni ham kimdir ota kabi sevishi mumkinligiga ishonganini xotirlaydi. Biroq, Daddy Clidell haqida Anjelu u mening birinchi otam edi, undan ko‘p narsalarni o‘rganganman, ko‘chada yursak ham tanishlar u aniq sening qizing deya xitob qilar edilar deb yozadi (chapter 29, p 135). Bailey esa na otasi, na onasining bunday turmush tarziga ko‘nika oladi, onasi uydagi yagona erkak Daddy Clidelligini aytganda shu qadar g‘azablanadiki, faqat u onasining o‘g‘li ekanligi ayta oldi (chapter 33, p 157) va uyni tark etdi. Bundan ko‘rinadiki , Anjelu va Bailey ulg‘aygan bo‘lishlariga qaramasdan yo‘qotilgan yillarni qaytarishga, o‘sha kichkinaliklarida ko‘rmagan mehrni his qilishga urinadilar, ammo ota-onalari ularni ulg‘aygan va mustaqil hayotlarini qurishlari kerakligini ta’kidlardilar. Otasi o‘z yo‘lidan ketgan bo‘lsada, onasi Anjelu va akasini mustaqil bo‘lganliklariga qadar qo‘llab-quvvatlashga harakat qilganligini, har qanday holatda ham o‘z maslahati va e‘tiborini ayamaganligini asarning so‘ngi boblarida bir necha marotaba guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Shuningdek asarni o‘qir ekanmiz, undagi yana bir oilaviy mavzu

e'tiborimizni tortadi, ya'ni Afro-Amerikaliklarning o'sha davrda hamjihatlikda katta oila bo'lib yashash tarzi. Maya Anjelu Stampsda yashaganda ham, Kaliforniyaga ko'chib o'tganda ham har ikkala holatda buvilari bilan yashaganligini ta'kidlaydi. Stampsda buvisi "Momma", amakisi "Uncle Willie" va akasi Bailey bilan istiqomat qilishgan bo'lsa, onasining oldiga ko'chib kelishganda Baxter buvisi, tog'alari Tommy va Billy – ulkan Baxter qabilasi hamda Daddy Clidell bilan yashaganmiz deya xotirlaydi Anjelu. Asarda Anjelu "Momma" buvisini qattiqqo'l deb eslasa, Baxter buvisini kasalmand va hech kimning bizning o'qishimiz bilan ishi yo'q edi deb eslaydi: *' We went to school and no family member questioned the output or quality of our work "* (chapter 26, p 125). Bundan ko'rinadiki har ikki oilada muhit va qadryatlar turlicha bo'lgan, Baxterlar bilan Anjelu erkin hayot kechirganlar, Stampsda dam olish kunlari cherkovga borilgan bo'lsa, Kaliforniyada kino va teatrqa yoki ko'ngilochar maydonlarga borishgan.

Asarda yana bir shunday dolzarb mavzu borki, unga yolg'iz ayollar qismati, gender muammolari, irqchilik, din, insoniy tenglik, urush oqibatlari kabi ijtimoiy muammolarini kiritish mumkin. Bu, aynan, inson va jamiyat mavzusidir. Bolalik, oila mavzusini Anjeluning asarida qanchalik tez-tez uchratsak, inson va jamiyat, atrof-muhitning insonga ta'siri, jamiyatda yuz berayotgan muammolarning bevosita yozuvchining hayotida aks ettirilishini uning xotiralaridan anglab olish qiyin emas. "Angladim qafasdagi qush nolasin" asari ayol yozuvchining nuqtayi nazaridan yozilganligi uchun feministik ruhdagi asar bo'lishi va unda ko'proq ayollarga xos muammolar yoritilishi tabiiy holdir. Anjeluning ulg'ayishi va shakllanishida atrofidagi ayol qahramonlarning o'rni beqiyosdir hamda asarda erkak personajlardan ko'ra ayol personajlarning ko'pligi ham buning yaqqol isbotidir. Asardagi barcha ayol personajlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyat bu ularning qismatidagi yolg'izlik, oila-ro'zg'or tashvishlari yelkasidaligi va jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishidir. Misol uchun, Anjeluning ota tomondan buvisi "Momma" ham uch marta turmush qurganiga qaramay, nogiron o'g'li va nabiralari uchun yashayotgan, shuningdek, jamiyatdagi insonlar dardiga ham

befarq bo'lmagan yolg'iz, ammo kuchli ayoldir. Vivian Baxter ham bir nechta omadsiz turmushlarni boshdan kechirgan, qaramog'ida yolg'iz onasi, ikkita aka-ukalari va nihoyat, o'g'li va qizidan iborat katta oilasini ta'minlash uchun tinmay mehnat qiluvchi jasur ayoldir. Asar so'ngida Anjeluning qismati ham ularniki kabi takrorlanadi desak adashmaymiz, zero, u ham farzandi Guy bilan oldida turgan katta hayot qiyinchiliklarini bir o'zi yengishiga to'g'ri kelgan yolg'iz ayolga aylanadi. Bundan tashqari, asarda Mrs. Flowers va Miss Kirwinlarning oilasi haqida ham yozuvchi hech narsa demaydi. Miss Kirwinning singlisi bilan yigirma yildan beri o'qituvchilik sohasida ishlashini aytib o'tadi, demak uning ham singlisidan boshqa hechkim yo'q, umrini kasbiga, o'quvchilariga baxshida etgan ayoldir. Mrs. Flowers esa ingliz klassik romanlarida uchraydigan sarvqomat, go'zal va aristokrat ayol sifatida ta'riflanadi (chapter 15, p 65). Yozuvchining Mrs. Flowers bilan bog'liq xotiralardan shuni anglash mumkinki, u kitobsevar va qora tanlilar ichidagi eng madaniyatli ayoldir, biroq cherkov yig'inlariga qatnashmas, odamlarga unchalik qo'shilmasligini Anjelu ta'kidlab o'tadi. Baileyning ilk sevgisi bo'lgan Joyceni ham asar davomida o'z manfaati uchun har xil yo'llar bilan asrab olgan xolasinikidan qochib ketganligini ko'rishimiz mumkin, aslida, u ham jamiyatda o'z o'rnini topolmay, sarson bo'lgan ayolga aylangan edi.

Anjeluning xotiralaridan va hayoliy olamidani, o'ziga nisbatan bildirgan fikrlaridan shuni anglash mumkinki, o'sha davr jamiyati va Anjelu uchun din deyarli barcha qarashlarning asosi bo'lgan. Asosan, Amerikaning janubiy qismidagi aholining turmush tarzida din muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki onasining bag'riga qaytgach, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, dam olish kunlarini Stampsdagi kabi cherkovga borib o'tkazmasdilar. Stampsda esa dam olish kunlari cherkov amallari bilan boshlanar, har yili diniy ma'ruzachi kelar va qishloqning yaxshi odamlari yig'ilib tangrining xizmatidagi insonlarga qo'shildilar" (chapter 18, p 82), cherkovda alohida bolalar o'tiradigan qator ham bor edi deya xotirlaydi Anjelu. Shu o'rinda, Anjelu cherkov xizmatkorlarining va kelgan odamlarning dinga ko'r-ko'rona ergashishlarini ham tanqid qilib o'tadi, quyidagi so'zlardan buni yaqqol sezish mumkin: "*The humming crowd began to*

sound like tired bees, restless and anxious to get home. Converted sinners flowed down the aisles to shake hands with the evangelist and stayed at his side or were directed to one of the men in line. Over twenty people were saved that night.” (chapter 18, p 85). “Momma” buvisi ham deyarli barcha tarbiyaviy o‘gitlariga dindan iqtiboslar keltirar edi, hotto bir marta Anjelu “by the way “ bog‘lovchisini qo‘llagani uchun buvisidan qattiq dakki eshitganini va buvisining uyida tangrining nomlari bekordan-bekorga tilga olinmasligi kerakligini yozadi: “*Momma explained that “Jesus was the Way, the Truth and the Light,” and anyone who says “by the way” is really saying, “by Jesus,” or “by God” and the Lord’s name would not be taken in vain in her house.*” (chapter 15, p 70). Buvim doim tongni tangriga iltijo qilishdan boshlar, uxlashdan oldin ham ibodat qilar edi va biz ham ishlarimizni tugatib, “*prayer*” larimizni tugatgandan so‘ng, uxlashga yotar edik deya yozadi asarda Anjelu. Ko‘rinib turibdiki, din va taqvodorlik Anjeluning hayotida va uning tarbiyasining shakllanishidagi asosiy mezonlardan biri bo‘lgan deyish mumkin.

Anjeluning hayotdagi qarashlarining shakllanishiga ta‘sir qilgan yana bir omil bu tarixiy jarayonlarning uning ko‘z o‘ngida yuz berishidir. Albatta, bu – asar davomida hikoya qilingan Ikkinchi jahon urushining va Yaponiyaga qarshi urushning yuz berishi, buning natijasida ijtimoiy hayoting ham tubdan o‘zgarishidir. Bu omillar, ayniqsa, Afro-Amerikaliklar hayotida tub o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘lganligini yozadi Anjelu. U asarda ko‘z o‘ngida yaponlarning kamayib ketayotganini, ularning qarorgohlari va ish o‘rinlari asta-sekinlik bilan qora tanlilar tomonidan egallanganligini yozadi. Endi ikki-uch qavatli uylarda qora tanlilar istiqomat qilar edi, hafta mobaynida hattoki uch marotaba to‘lov cheklari aql bovar qilmas edi, qora tanlilar boshliq, ish beruvchi va pul sarflaydigan inson sifatida ko‘rayotgan edi. Ust-bosh tozalovchilar, taksi haydovchilari, ofitsiantlar unga xizmat qilishi uchun to‘lov qila olar edi. U ham jamiyatga kerakli va qadrli ekanligini his qilayotgan edi, butunlay notanish va o‘zgacha, ammo yoqimli hissiyot. Kim ham o‘ylabdi qora tanlilar kun kelib irqiy kelib chiqishi muhim sanalgan paytda kerak insonga aylanadi deb xotirlaydi Anjelu (chapter 27, p 129).

Aynan, urush davrini Anjelu o'smirlik paytiga to'g'ri kelganligini va San Fransisko shahri u uchun eng unutilmas, go'zal va ozodlik makoni bo'lganligini ta'kidlaydi: *"The city became for me the ideal of what I wanted to be as a grownup. To me, a thirteen-year-old Black girl, stilled by the South and Southern Black life style, the city was a state of beauty and a state of freedom."* (chapter 27, p 130). Anjelu yana shuni ham ta'kidlaydiki, hammasi yaxshidek tuyulsada, qora va oq tanlilar zavodlarda yonma-yon ishlayotgan bo'lsalarda, sobiq Afro-Amerikalik fermerlarning yuzida oq tanlilarga nisbatan qo'rquv va ishonchsizlik sezilib turar edi. Zero, atrofda ushbu shubhaga sabab bo'layotgan voqealar ham yuz berib turar edi, xuddi shunday voqealardan birini Anjelu quyidagicha xotirlaydi: "Bir kuni oq tanli, yoshi kattaroq hamshira yo'lovchi avtobusda qora tanli bilan bir joyda o'tirishdan bosh tortadi, qora tanli yo'lovchi unga joy bo'shatib bersada uni qochoq, o'zining o'g'li urushdaligini aytib, urushga bormagan negr deya haqorat qiladi. Shunda qora tanli yo'lovchi deraza tarafdagi yengini ko'rsatganda, barcha yeng ichida qo'l yo'qligini sezadi va u sokinlik hamda g'urur bilan: "o'g'lingizdan o'sha yerga tashlab kelgan qo'limni qidirib ko'rishini so'rasangiz bo'larkan" - deydi. Demak, o'sha davrda, nafaqat front ortida, balki qora tanlilar frontda ham o'z mehnatlarini ayamaganlar.

Yuqoridagi voqeadan ko'rinib turibdiki, asarda eng ko'zga tashlanadigan hamda Anjeluning ruhiyatida ham chuqur iz qoldirgan mavzulardan biri bu irqchilik va insoniy tenglik mavzularidir. Kitobxon asarni mutolaa qilar ekan, deyarli barcha boblarda ushbu mavzu eng ko'p yoritilganligiga guvohi bo'ladi. Anjeluning shaxsan o'zi ham juda ko'p marotaba irqiy kamsitilganligini asar davomida qayta va qayta xotirlaydi. Shu yo'sinda "qora" va "oq" so'zlari ham asarda eng ko'p uchraydigan so'zlar desak mubolag'a bo'lmaydi. "Angladim qafasdagi qush nolasin" asarida nafaqat Anjeluni, balki barcha asar qahramonlarini irqchilik muammosi qiynaydi. Dastlab asar boshida yozuvchi Stampsdagi hayotning ham ikkiga bo'linganligini, oq tanlilar bilan qora tanlilar yashaydigan hududning ajratilganligini eslaydi yoki shaharda deyarli barcha noxush voqealarga qora tanlilar aybdor qilinishi ortidan, hatto uning nogiron

amakisini ham do‘kon omboriga berkitib qo‘yilishi har qanday kitobxon qalbida achinish, nafrat uyg‘otadi. Anjeluning o‘zi ham buvisi bilan yuz bergan voqeani xotirlar ekan, oq tanlilarni “*whitefolks*” yoki “*powhitetrash*” deb ataydi (chapter 6), ya’ni “*poor white trash*” [1] - atamasi asosan Janubiy Amerikada oq tanlilarning nochor va savodsiz quyi qatlamiga nisbatan ishlatilgan, ushbu atamadan ayniqsa qora tanlilar orasida keng foydalanilgan. Anjelu asarda ushbu atamadan oq tanlilarning buvisiga nisbatan ko‘rsatgan hurmatsizligiga ularni shunday ataydi va keyinchalik ularning bu tarbiasizligiga buvisi mehr va hurmat bilan javob berganini tushunib yetadi. Shuningdek, Anjelu yuqori sinf o‘quvchilarining bitiruv marosimida ham qora tanlilarning maktabi oq tanlilarnikidan tubdan farq qilishini aytib o‘tadi: “maktabimizda na tennis maydoni, na yashil maydon, na tirmashib chiqqan chirmoviy o‘simligi bor edi, maktabimiz binolari loy tepalikka qurilgan va bir tomoni fermaga ulanib ketganini ko‘rish mumkin edi, hatto maktab maydonini o‘rab turuvchi devorlar ham yo‘q edi” (chapter 23, p 106). Marosimga kelgan oq tanli ham bitiruvchilarga oq tanlilarning maktabida yaratiladigan qulayliklar haqida gapiradi, Anjelu va unig safdoshlariga esa shunchaki omad tilaydi, shu onda Anjeluning miyasida ushbu o‘y-hayollar tug‘yon uradi: “*We were maids and farmers, handymen and washerwomen, and anything higher that we aspired to was farcical and presumptuous.*”- “bizlar xizmatkor va dehqonlar, kir yuvuvchi va hammollar edik, undanda yuqorirog‘ini orzu qilish ahmoqona bo‘lishi mumkin edi” (chapter 23, p 112). Bunday bo‘lishiga sababchi bo‘lgan tarixiy shaxslarni hayolan o‘ldirib chiqadi, Linkolin mustaqillik deklaratsiyasini imzolashdan oldin qatl qilinsa edi yoki Kristofer Kolumb yetib kelmasdan Santa Mariada cho‘kib ketsa edi deya hayol qiladi. Qora tanli bo‘lish va rangim tufayli hayotimni o‘zim belgilay olmasligim, allaqachon jim bo‘lib o‘tirishga o‘rgatilganligim, va nihoyat, rangimga nisbatan bildirilgan taqiqlarga javob qaytaraolmasligim – bularning barchasi dahshat edi deya ko‘nglidan o‘tkazadi Anjelu. Yoki, qora tanli odamning vahshiylarcha o‘ldirilib, so‘ng ariqqa cho‘ktirishi, topilganda esa oq tanli erkak tomonidan koptokdek o‘ligining yumalatilishi, barcha achinganda oq tanli kishining jilmayganini eshitib Willie

amaking ham qalbidan ushbu misralarni otilib chiqqanini Anjelu asarda yodga oladi: “*They don’t really hate us. They don’t know us. How can they hate us? They mostly scared.*” (chapter 25, p 121)-“ Aslida ular bizdan nafratlanishmaydi. Bizni bilishmaydi ham. Qanday qilib bizni yomon ko‘rishadi? Aslida qo‘rqishadi”. Aynan ushbu voqeadan so‘ng buvisi Bailey va Anjeluning Stampsdan onasining yoniga ketishi kerak degan qarorga keladi, zero oq tanlilar va qora tanlilar o‘rtasidagi vaziyat kundan-kunga keskinlashib borayotgan edi. Keyinchalik, yuqorida aytib o‘tganimizdek, Ikkinchi jahon urushida qora tanlilar oq tanlilar bilan yelkama-yelka jang qilgan bo‘lsalarda, irqiy notenglik yo‘qolmaganini Anjelu yodga oladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, “Angladim qafasdagi qush nolasin” asarida yozuvchi o‘z xotirali orqali turli mavzularni yoritganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mavzularni guruhlariga ajratar ekanmiz, asarda feminism, irqchilik, ta’lim-tarbiyaning ahamiyati, o‘smirlik davridagi o‘zgarishlar, otanonaning o‘rni, urush oqibatlari, birodarlik mehr-oqibati, yetimlik kabi mavzularning dolzarbligi va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini anglaymiz. Bu mavzular, albatta, bolalik, oila, inson va jamiyat kabi guruhlariga birlashadi, natijada, bu ran-baranglik kitobxondan asarni izchillik bilan mutolaa qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Drinkard, Allyson (2014). "White Trash". In Coleman, M.J.; Ganong, L.H. (eds.). *The Social History of the American Family: An Encyclopedia, Volume 3*. SAGE Publications. pp. 1452–3. ISBN 978-1-4522-8615-0.

2. Maya Angelou, *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. 860 P.